

## 2 JARAYON

✦ Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar huquqiy hujjatlarining nafaqat nazariy jihatdan mukammal bo'lishini, balki ularning amaliyotda qanday ishlab, aholi va tadbirkorlik subyektlari hayotiga ko'rsatadigan ta'sirini oldindan tahlil qilishni talab etmoqda. Shu bois qonunlar sifati, ularning ijrosi hamda ortiqcha ma'muriy yuklamalarni kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

## Islohotlarning HUQUQIY POYDEVORI



Aynan shu maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq Adliya vazirligi huzurida Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash instituti tashkil etildi. Ushbu institut mamlakatda ilk bor qonunlarning nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy, ijtimoiy va amaliy samaradorligini baholashga ixtisoslashgan mustaqil tahlil markazi sifatida faoliyat boshladi. Institut normativ-huquqiy bazani o'rganishda institutsional metodologiyaga tayanib, hujjatlarni kompleks va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida baholaydi.

Institutning asosiy vazifalaridan biri ishlab chiqilayotgan va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning tartibga solish ta'sirini baholashdan iborat. Bu jarayonda yangi hujjat qabul qilinishi natijasida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xarajatlar, foyda va xavflar tahlil qilinadi. Natijada ortiqcha byurokratiya va amaliyotda ishlamaydigan normalarning oldi olinadi.

2025-yilda vazirlik va idoralar tomonidan tayyorlangan 61 ta tartibga solish ta'sirini baholash (TSTB) hisoboti institut tomonidan ko'rib chiqildi. Har bir hisobot yuzasidan xulosalar berilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida qonunchilikni takomillashtirishga doir 20 ta taklif tayyorlandi.

Qonunchilik hujjatlari soni ortib borar ekan, ular o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishi tabiiy. Shu bois Institut amaldagi normativ-huquqiy bazani inventarizatsiyadan o'tkazib, eskirgan, o'z ahamiyatini yo'qotgan yoki bir-biriga zid normalarni aniqlaydi hamda ularni bekor qilish yoki o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritadi. Xususan, o'tgan yil davomida 20 dan ortiq qonun, 100 dan ziyod Prezident hujjatlari va 300 dan ortiq Hukumat qarorlari o'z ahamiyatini yo'qotgani sababli bekor qilindi. Bundan tashqari, 530 ta normativ-huquqiy hujjat korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilib, qariyb 100 ta korrupsiyaviy omil aniqlandi va ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli choralar ko'rildi.

Institut faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi – amaldagi qonun hujjatlarining ijro etilishi va ularning ijtimoiy samaradorligini monitoring qilishdan iborat. Bu jarayon orqali nafaqat yangi hujjatlarning kutilayotgan natijalari, balki ilgari qabul qilingan qonun va qarorlarning amaliyotdagi samarasi ham baholanadi.



**Mazkur yo'nalishda 100 ta amaldagi normativ-huquqiy hujjat ro'yxati shakllantirilib, ular asosida 60 ta soha bo'yicha 28 ta qonun, 25 ta Prezident hujjati, 40 ta Hukumat qarori hamda 7 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjat tahlil qilindi.**

Shunday qilib, Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash instituti huquqiy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqayotgan mustaqil tahlil markazi sifatida shakllandi. Uning faoliyati har bir huquqiy hujjatning jamiyat va iqtisodiyotga ta'sirini chuqur tahlil qilish, amaldagi qonunlarning samaradorligini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ilmiy yondashuv, tizimli tahlil hamda davlat organlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik Institutning qonunchilik sifatini oshirish, barqaror huquqiy muhitni shakllantirish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilishdagi rolini yanada mustahkamlamoqda.

**Zulfizar KARIMOVA,  
Adliya vazirligi huzuridagi  
Qonunchilikni tahlil qilish va  
tartibga solish ta'sirini baholash  
instituti mas'ul xodimi**

✦ Xalqaro tahlillarga ko'ra, 2030-yilga borib sun'iy intellekt jahon iqtisodiyotiga 20 trillion dollardan ortiq qo'shimcha qiymat olib kirishi kutilmoqda. Bu jarayon O'zbekistonni ham chetlab o'tayotgani yo'q.

## ADOLAT VA SHAFFOFLIK SARI YO'L

Prezidentning Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida ham zamonaviy davlat boshqaruvi, raqamlashtirish va adolatli sud-huquq tizimini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi. Mazkur hujjat mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi, sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.



Murojaatnomada belgilangan eng muhim yangiliklardan biri – 2026-yildan boshlab Elektron hukumat platformasining tubdan yangilanishidir. Yangi tizim orqali mingdan ortiq davlat xizmatlari, 5 mingdan ziyod funktsiya va vazifalar, 200 ta ma'lumotlar bazasi hamda 100 mingga yaqin davlat xizmatchilarining vakolatlari yagona raqamli platformaga integratsiya qilinadi.

Eng muhimi, fuqarolardan kelib tushadigan murojaatlarni qabul qilish, ijrochilarga taqsimlash va ijro muddatini nazorat qilish jarayonlari sun'iy intellekt orqali amalga oshiriladi. Bu esa davlat xizmatlarida inson omili, ortiqcha byurokratiya va korrupsiya xavfini keskin kamaytirish imkonini beradi.

Oddiy misol: yangi uy qurgan fuqaro kerakli kadastr hujjatini olish uchun murojaat qilganida, tizim avtomatik ravishda uni elektr, gaz va suv tarmoqlariga ulash masalalarini ham bir vaqtning o'zida hal qilib beradi. Bunday proaktiv xizmatlar soni 2026-yilda 100 tadan oshirilishi rejalashtirilgan.

Sud qarorlari ijrosini ta'minlashda ham sun'iy intellektdan foydalanish rejalashtirilgan. Kelgusi ikki yil ichida majburiy ijro harakatlarining kamida 30 foizi inson aralashvisiz, avtomatik tarzda amalga oshirilishi belgilangan. Bu fuqaro va tadbirkorlarning buzilgan huquqlarini tezkor tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt davlat xizmatlarini yanada tezkor, aniq va samarali qilish imkonini beradi. Masalan, chat-botlar orqali fuqarolar

24/7 rejimda huquqiy va ma'muriy savollariga javob olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish orqali ijtimoiy nafaqa, pensiya va boshqa xizmatlar manzilli va adolatli taqdim etiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellektni joriy etish katta moliyaviy resurslar, malakali kadrlar va sifatli ma'lumotlar bazasini talab qiladi. Shu bois bu jarayonda axloqiy me'yorlar, ma'lumotlar xavfsizligi va jamoatchilik ishonchi ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi shart.

Prezident Murojaatnomasida belgilangan vazifalar davlat boshqaruvini tubdan transformatsiya qilish, "davlat – xalq uchun" tamoyilini amalda ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Sun'iy intellekt esa ushbu jarayonda adolat, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlovchi asosiy vositalardan biriga aylanoqda.

Bu islohotlar natijasida fuqarolar davlat xizmatlaridan rozi bo'ladigan, sud tizimiga ishonch ortadigan va korrupsiyaga murosasiz jamiyat shakllanishiga mustahkam zamin yaratiladi.

Eng muhimi, sun'iy intellekt asosida shakllanayotgan zamonaviy boshqaruv tizimi jamiyatda qonunga ishonchni mustahkamlash, sud adolatini ta'minlash va davlat bilan fuqaro o'rtasidagi mas'uliyatli muloqotni yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida qonun ustuvorligi, adolat va inson qadrini eng oliy qadriyat sifatida qaror toptirishga xizmat qiladi.

**Ziyoda TO'RABAYEVA,  
Toshkent davlat yuridik  
universiteti katta o'qituvchisi**